

**YOSHLARDA AXLOQIY ONG TUSHUNCHASINI
SHAKLLANTIRISH HAQIDA SHARQ MUTAFAKKIRLARINING
PSIXOLOGIK VA ILMIY QARASHLARI**

Saydaliyeva Mashrabxon Muxtorovna

Andijon viloyati Shahrixon tumani 46- umumta'lim maktabi psixologi

Nozimaxon Mamajonova Mahmudjon qizi

Andijon viloyati Shahrixon tumani 11-umumta'lim maktabi psixologi

Annotatsiya: *Axloqiy ong axloqiy talablarni, me'yorlarni, qoidalarni, adolat haqidagi tasavvurlarni shakllantiradigan qarashlar, g'oyalar ong orqali bajariladi, ammo jamiyat ularni saralab, manfaatdor bo'lganlarinigina yuzaga chiqaradi.*

Kalit so'zlar: *axloqiy ong, ta'limmehnatsevarlik, ilmsevarlik, insoniylik, iroda tarbiyasi, muhabbat tuyg'usi.*

KIRISH

Axloqiy ongning ijtimoiy ahamiyati ham xuddi ana shundadir. Axloqiy ongda voqelik qonunlar sifatida emas, balki insoniy xatti-harakatlarga qo'yilgan ijtimoiy tartib, talablar, me'yorlar shaklida qayd etiladi. Axloqiy ong ijtimoiy va individual ongga bo'linadi. Shu sababli axloqiy ong, bir tomondan, jamiyat yoki guruhning talablari normativlarini ifodalasa, ikkinchi tomondan, shu talablarni anglashning individual, shaxsiy shakli va ularni amalda namoyon qilishdir. Axloqiy ongda me'yorlardan tashqari odat va an'analar muhim tajriba va aql bilan chambarchas bog'lanib ketadi, hissiy tajriba bo'lmasa, aql bo'm bo'sh, aql ishtirok etmagan hissiy tajriba esa ko'pdir, deb ta'kidlagan edi I. Kant. Abu Homid al G'azzoliyning «Ey farzand», «Kimyoi saodat», «Ihyo-ul-ulum id-din», «Oxiratnoma» kabi asarlari shular jumlasidandir. Ularning yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga oid qarashlari, ayniqsa, axloq - odob, insof, diyonat, imon, e'tiqod, vijdon, mehnatsevarlik, ilmsevarlik, insoniylik xususidagi g'oyalari barkamol

shaxsni har tomonlama va uyg'un rivojlantirishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Uning axloqiy qarashlari, asosan, har jihatdan buyuk asar bo'lmish «Ihyoi ulum ad-din» deb atalgan to'rt jildlik kitobida o'z aksini topgan. Unda tavakkul (hammma narsada Allohga suyanish) Xudoning yakkaligiga e'tiqod sifatida talqin etiladi va muhabbat, ixtiyor erkinligi, taqdir, niyat singari muammolar bilan bog'liq holda tahlil qilinadi. G'azzoliy muhabbatni bilishning mahsuli deb ataydi. Zero, inson nimaniki bilsa, o'shanigina sevishi mumkin. Masalan, toshda muhabbat bo'lmaydi u bilishdan yiroq. Muhabbat, faqat bilishning jonli sub'ektigagina xos sifatdir. Mutafakkirning fikriga ko'ra, muhabbatning besh turi mavjud: 1) insonning o'ziga, o'z kamoloti va sog'-omonligiga muhabbati, 2) insonning o'z hayotini davom ettirishini ta'minlovshi, uni asrovshi, undan turli mahliqotlarni (halok etuvchilarni) nari tutuvshi valine'matlariga muhabbati; 3) insonning, garchand shaxsan o'ziga yaxshilik qilgan zotlarga yaxshilik qilmagan bo'lsa ham, boshqa insonlarga xizmat ko'rsatgan, yaxshilik qilgan zotlarga muhabbati; 4) Insonning tashqi yoki ichki qiyofadagi barcha go'zallikka muhabbati; 5) insonning o'zi bilan botiniy (ichki), yashirin o'xshashligi bor bo'lgan zotlarga muhabbati. Mazkur muhabbat turlari hammasining zamirida Allohga muhabbat yotadi, ya'ni, insonning o'ziga, o'zgalarga. atrof-muhitga munosabati muhabbat orqali amalga oshadi va bu muhabbat turlarining hammasi Allohga muhabbatning bilvosita ko'rinishidir. Zero: «O'zini anglab yetgan kishigina o'z yaratganini anglab yetadi, u o'z-kamolotga erishuvi Allohdan, Alloh va Alloh vositasidadir», deydi Imom G'azzoliy. Mutasavvif faylasufning ixtiyor erkinligi borasidagi qarashlarida taqdir mutlaq maqarrar hodisa sifatida talqin etiladi. Bunda ham bilim (bilish) birinchi o'nima o'ziga yoqish yoki yoqmasligini bilim (bilish) orqali anglab yetadi. Umuman, ixtiyor erkinligi ixtiyorning o'ziga xos turi, u nimagaki inson ishonchsizlik tuysa, o'shanga nisbatan bo'lgan aqliy munosabatdan yuzaga chiqadi. Ixtiyor erkinligi «kasb» tushunchasi bilan bog'liq.

Har bir erkin tanlangan harakat uch narsa – bilim, ixtiyor etish va qobiliyat yordamida ro'yobga chiqadi. Zero, inson bilmay turib- xohlamaydi, xohlamas ekan, harakat qilmaydi; shuning uchun ixtiyor etmoq lozim. Ixtiyor etish hodisasi

yuz bergandagina navbat qobiliyatga keladi va qobiliyat inson a'zolarini harakatga tushirishga kirishadi. Demak, niyat o'rtaliqdagi sifatdir. Niyat tasavvuf axloqshunosligida ba'zan harakatdan ham katta ahamiyat kasb etadi. Agar yaxshi niyat qilinsa-yu, lekin banda ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan sabablar tufayli u ro'yobga chiqmay qolgan bo'lsa, bunday niyat amalga oshgan deb hisoblanadi. Shunday qilib, har bir harakat o'zini uyg'otadigan niyatga bo'ysunadi, zero, u o'z zaruriyatini o'sha niyatdan oladi. Xulosa qiladigan bo'lsak, tasavvuf ilmida axloqshunoslikning xususiyati: bu ta'limot «Xudoga-mutlaq fazilatlar Egasiga, mutlaq komil Zotga yetichish yo'lida insonning nisbiy komillikka erisha borichi g'oyasini ilgari suradi, bu g'oya insonning Yaratgan oldidagi qo'rquvini muhabbatga aylantirish uchun xizmat qiladi. Qisqasi, tasavvuf axloqshunosligi insondan Xudoning ko'r-ko'rona quli bo'lib, emas, balki Uni tanigan, bilgan Uning yerdagi xalifasi va oshig'i sifatida harakat qilishni talab etadi».

IX-XII asrlarga kelib yashab ijod etgan allomalarimizning axloqiy tarbiya mazmuni aks etgan asarlari sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin. Jaloliddin Muxammad Ibn Asad as-Siddiqiy alDavoniy ham o'z davrining ilm-fan taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan qomusiy olim. Uning "Axloqi Jaloliy" asarida ham inson kamoloti uchun eng zarur bo'lgan axloqiy fazilatlar yo'llari va usullari bayon etiladi. «Axloqi Jaloliy» uch qismdan iborat. Birinshi qism — axloq faniga asolangan bo'lib, unda muhim ijtimoiy - siyosiy va ta'lim – tarbiyaga oid masalalar ko'tariladi. Davoniyning insonning haqiqiy kamolotga yetishida aqliy va axloqiy shakllanishi masalalariga to'xtalib avvalo, u boshqa mutafakkirlarga ergashib o'zining axloqiy qarashlarini o'z salafлари kabi talqin etdi. Masalan, Abu Nasr Forobiy, Ibn Miskaveyx, Nasriddin Tusiy, Ibn Sinolar kabi inson kamolotga erishishda adolat, donolik, shijoat singari yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lishi, hissiy bilim bilan bir qatorda narsa va hodisalarning mohiyatini idrok qilishni to'g'ri talqin etdi. Davoniyning fikricha bolaning tarbiya olishi, odob bog'liq. Chunki, hayotda har kuni bola ko'radigan, muloqotda bo'ladigan narsalar uning xulqiga yaxshi va yomon ta'sir etadi. Bolada har kuni kerak bo'ladigan insoniy xislatlar: yurish qoidalari, xushmuomalalik, ota-rostgo'ylikni o'rganish,

shirinsuxanlik, kamtarlik, so'zlashuv odobiga rioya qilish kundalik turmushda o'rganiladi. Shunga ko'ra, muhim.

Bolaga oddiy axloqiy qoidalarni ochiq etish, o'z qilmishi oldida javob berish ma'suliyatini his etishini tarkib tortirishda ota va ona burchlidir. Demak, Davoniyning ilm-tarbiya tarixida muhim ahamiyatga ega. Chunki, u yuksak axloqiy fazilatlarni tarannum etadi, kishilarning baxt-saodatli bo'lishi uchun tavsiyalari hozirgi davrgacha yetib kelgan. Axloqiy g'oyalar asosan badiiy va didaktik shakllarda o'z aksini topdi. Shu jiha tojik xalqlarining mutafakkiri Ahmad Donish Ahmad Donish o'z asarlarida Buxoro amirligi davlat tuzumini Rossiya davlat tuzumi bilan solishtirib, uni isloh qilish lozimligini ta'kidlaydi. Ayni p bilan fikr yuritir ekan, u adolatni ham podsho sifatida olib qaraydi.

Turkiston ma'rifatparvarlari orasidagi yana bir mutafakkir ta'limshunos, pedagog va axloqshunos olim Abdulla Avloniydir. Uning XX asar boshlarida Turkistonda mashhur bo'lgan «Turkiy guliston yohud axloq» asari axloqiy muammolarga jadidchilik nuqtai-nazaridan yondoshishi, ko'pchilikka tushunarli tilda yozilgani bilan ajralib turadi. Agar Anbar otinning «Qarolar falsafasi» risolasida dolzarb axloqiy muammolarga majoziy, falsafiylik, ilmiy, nazariy xulosalar orqali yoritilsa, Avloniy asarida fazilatlar va illatlarga ko'proq tarif berish, ularni sharhlash yo'li bilan yondoshiladi. Avloniy mana bunday deb yozadi - «Tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir». Darhaqiqat, ushbu qimmatli so'zlar bugungi globallashuv davrida barcha millatlar jamiyatida o'z isbotini ko'rsatmoqda. Shu bois, Avloniy tarbiyani, qadimgilar va o'rta asrlar musulmon Sharqi mutafakkirlari an'analariga suyanib, uchga bo'ladi: badan tarbiyasi, fikr tarbiyasi, axloq tarbiyasi. Shular orasidan axloq tarbiyasiga alohida urg'u berib, uni «insonlarga eng muhim, ziyoda sharaf, baland daraja berguvshi» tarbiya, deb baholaydi. Fazilatlarni faylasuf - pedagog yaxshi xulqlar, illatlarni esa – yomon xulqlar deb ataydi. Diyonat, sharaf, hayo singari musulmon Sharqi uchun an'anaviy bo'lgan fazilatlar sharhi bilan birgalikda Avloniy vijdon, Vatanni sevmoq singari Turkiston mintaqasi uchun yangi talqinda taqdim etilgan fazilatlar haqida alohida to'xtaladi. Vatanni sevmoq

lozim bo'lsa, uning yo'lida jonini fido etmoq yuksak axloqiy insonga xos fazilatdir, degan qimmatli fikrlarini amaliyotga tatbiq etish bizning hozirgi kundagi jamiyatimizda, aynan, maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy tushunchalarni psixologik jihatlarini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Abdulla Avloniyning axloqiy qarashlari mumtoz adabiyotimizda do'stlik va sadoqat haqidagi fikrlari adabiyotimizdagi axloqiy qarashlarning tadrijiy davomi edi.

Abdurauf Fitrat ushbu asarida har bir yangi oila uchun qo'llanma vazifasini o'tashi mumkin bo'lgan masalalarni yoritadi. U kitobning birinchi qismiga, ma'lum ma'noda me'yoriy dasturilamal tarzida tartib beradi. Undan har bir yangi oila qurmoqchi bo'lgan turkistonlik kichik hajmdagi axloqiy salomatlik qomusi sifatida foydalanishi mumkin edi. Bundan tashqari, asarda oilaning moddiy tomonlari, tashkil topgandan boshlab, buzilishigacha bo'lgan holatlarning axloqiy asoslari to'g'risida ham to'xtalib o'tadi. Bu jihatlarni o'sha davr nuqtai nazaridan ijobiy jihat hisoblanadi. Chunki, bu davrda Turkistonda xalq meditsina unchalik rivojlanmagan, kishilarning turmuch madaniyati ham u qadar yuqori emas edi. Fitrat ko'plab xorijiy davlatlarda bo'lganligi sababli, u yerdagi ijobiy, o'rga orttirgan edi. Er-xotin va farzandlardan iborat, bir shaxs boshchiligida, birga yashovchilar, Fitratning fikricha, oilani tashkil etadi. Asarda har bir oila manfaatini himoya qilish maqsadida turli qonunlar ishlab chiqilgani, ular «manzil tadbir» (ro'zg'or tebratish tadbiri) deb atalgani ta'kidlanadi. Shu ma'noda, muayyan munosabatlarini zaiflashtirib yuborsa va intizomsizlikka yo'l bersa, shu millatning hayoti ham shubha ostida qoladi.

Oilada ayollarga munosabat haqida to'xtalib, Fitrat quyidagi rivoyatni keltiradi: "Oysha (r.a.) rivoyat qiladilar. Nabiy alayhissalom dedilar: «Eng komil mo'minlar xush xulq va oilasi bilan lutf ila munosabat qiladiganlardir. O'z xotinlariga mardikarim yaxshilik qiladi va mardilaim yomonlik». Fitrat nazarida mamlakat taqdiri va istiqboli barkamol farzandlarni tarbiyalash bilangina belgilanmaydi. Mazkur asarda millatning ma'rifatparvarligi ayollarga bo'lgan munosabatda ham yorqin namoyon bo'lishi qayta-qayta ta'kidlangan. Kitobning ikkinchi qismi farzand tarbiyasiga bag'ishlangan. Fitrat ham tarbiyani an'anaviy

yoʻnalishda talqin etadi: jismoniy tarbiya, aqliy tarbiya va axloqiy tarbiya. Ana shu uch tarbiya uygʻunligida haqiqiy inson kamol topadi, deb hisoblaydi muallif. Kitobning bu qismida Fitrat, maʼlum maʼnoda, oʻziga xos axloqiy tarbiya nazariyasini taqdim qiladi. U ixtiyor erkinligi muammosini mayl tushunchasi orqali oʻrtaga tashlaydi: baxt mayli, faoliyat mayli, aloqa mayli, boshqalarga mehr-muhabbat mayli va h.k. Bularning hammasida ham insonni jamiyat aʼzosi sifatida, ijtimoiy mavjudot sifatida olib qaraydi. Shuningdek, u izzat-nafs, ayniqsa, iroda masalasiga alohida toʻxtalib oʻtadi. «Iroda va ixtiyor» sarlavhasi ostidagi kichik bobda Fitrat farzandni irodali qilib tarbiyalashga daʼvat etadi, iroda tarbiyasining toʻrt baddan iborat qoida-bos-qishlarini taklif etadi. Bolani irodali qilib tarbiyalashda ota-onaning zoʻri emas, balki bolaga beriladigan muayyan erkinlik muhim ekanini taʼkidlaydi.

XULOSA

Sharq mutafakkirlari asarlaridagi fikrlar teranligi, maʼnosining chuqurligi, farzand taʼlim-tarbiyasi, inson hayoti manfaatlariga yaqinligi bilan barcha davr va jamiyat uchun muhim psixologik ahamiyatga ega. Ular inson hayoti, taʼlim-tarbiyasidagi fikrlari hayotiyli bilan psixologik jihatdan ilm-fan taraqqiyotiga chuqur taʼsir koʻrsatadi, shuning uchun ham Sharq mutafakkirlarining ilgʻor gʻoyalari mohiyatini oʻrganish orqali tadqiqot ishlarini amalga oshirish maktabgacha yoshdagi bolalarning axloqiy ong tushunchalarini oʻziga xos psixologik xususiyatlarini ochib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Axloq-odobga oid hadis namunalari // tarj. va Hikmatullayev X., Mansurov A. – 1990
2. Андреева И.Н. О становлении психологии, №5, 2008.
3. Akramova F.A. Maktabgacha ta'lim samaradorligining psixologik jihatlari. //Zamonaviy ta'lim/. 2015. No 2. – B.53-58.

4. Nishanova Z.T, G.Flalimova, A.G'.Turg'unboeva
psixodiagnostikasi/ Toshkent – 2017.

5. Nishanova Z.T, Kamilova N.G', Abdullaeva D.U va boshq.
Pedagogik psixologiya [Matn] : darslik jamiyati>> nashriyoti, 2018. — 600

6. G'oziyev, E.G'. Ontogenez psixologiyasi nazariy eksperimental
tahlil. Toshkent

7. Internet ma'lumotlari